

“YULDUZLI TUNLAR” ASARINI O‘QIB...

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15072899>

Hatamova Diyora

Jizzax davlat pedagogina universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.f.d.(PhD) G.Qurbonova

Atoqli adibimiz Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asari buyuk ajdodimiz Bobur mirzo hayotini o‘rganish, uning jasorati va matonatidan o‘rnak olish uchun eng muhim manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Bu asarni o‘qigan har bir insonning Boburga bo‘lgan hurmati yana bir karra ortib, uning mardligiga, nafaqat shohlar, balki koplak boshqa insonlarda ham topish mushkul bo‘lgan pok qalb egasi ekanligiga amin bo‘ladi. Shu jumladan, men ham bu asarni o‘qigunimga qadar Boburni faqat tariximizda qolgan boshqa podshohlar kabi oddiy bir shoh, shoirlar kabi bir ijodkor sifatida bilar edim. Ammo bu asarni o‘qigach Boburning shunchaki bir shoh va shoir emasligini, har tomonlama yuksak inson ekanligini anglab yetdim. Uning betakror fazilatlarini o‘z xayolimda kashf etdim.

Odatda shohlar mol-davlatga o‘ch, izzattalab va maqtovlarni xush ko‘ruvchi bo‘ladi. Shuningdek, tarixda har bir shohning hayotini biror yozuvchi yozib borar va unda o‘sha shohning yaxshi tomonlari ko‘rsatilib, u yuksaklarga ko‘tarilar edi. Ammo Bobur ulardan farqli ravishda boylikka, shon-shuhratga mukkasidan ketganlardan emasdi. Jang-u jadaldan, podshohlikdan bezganda boshqalar kabi oddiy yashashni istab, shohlikdan voz kechmoqchi bo‘lib yalangoyoq yurganlari, o‘limi oldidan o‘g‘li Humoyundan “hazratim” emas “otajon” deyishini iltimos qilganlari uning boylikka, mansabga o‘ch emasligidan, “Vaqo‘i”(“Boburnoma”)ga o‘z hayotini boricha, ortiqcha dabdabalarsiz yozishga urinib, Xondamir: “Hammasini umr kitobingizda ro‘yi rost bitmishsiz”, - deya hayratlanganda, “Chunki avlodlar haqiqatni bilsinlar, bizni farishta deb o‘ylamasinlar. Qilgan gunohlarimizni o‘zimizga nechog‘liq og‘ir tushganidan ogoh bo‘lsinlar”, - deb bergan munosib javoblari esa balandparvoz so‘zlarni, maqtovlarni emas oddiylikni, haqiqatni xush ko‘rishidan dalolatdir.

Bobur – eng buyuk shoh. Bobur dovonda boshqalar bilan birga qor tepib yo‘l ochadi, “ Boshqalar sovuqda turganda, men g‘or ichida xotirjam o‘tira olmayman”, - deya askarlari bilan birga bo‘ladi. Boburning sovuqda o‘lib ketishini istagan yo‘lboshlovchi Sulton ham unga tan beradi va bu fikridan qaytadi. Shoh Ismoil Boburning Shayboniyxon bilan mardonavor jang qilaganiga, mardligiga qoyil qolib, u bilan ittifoq tuzishga qaror qiladi. O‘sha vaqtda shia va sunniylar o‘zaro dushman (Boburning xalqi – sunniy, shoh Ismoil xalqi – shia mazhabidan) edi. Shunda ham Bobur barcha Payg‘ambarimiz(s.a.v) avlodi ekanligini va barcha musulmonlar o‘zaro qarindosh ekanligini isbotlab “o‘n ikki o‘ramli ipak salla” muammosiga yechim topadi, xalqni “katta” bir jangdan asrab qoladi. Hindistonni bosib olgach maqsadi boylik emas, ulkan davlat barpo etib hamma joyni obod qilish bo‘lgan

Bobur xalq ko'nglini olishga urinadi, shu boisdan garchi xavfli bo'lsa-da, hind oshpazlari qo'ldan taom yeydi, boshqa podshohlar bosib olgan yeridagi malikalarni o'z haramiga oladigan yoki askarlarga tortiq qiladigan zamonda Ibrohim Lo'dining onasiga ehtirom ko'rsatib, mulozimlarga malika Baydani o'z onalaridek hurmat ko'rsatishini tayinlaydi. Husayn Boyqaroning qismatidan o'rnak olib majlislarda may ichishni taqiqlaydi, Bano Sangram bilan jangi oldidan ham bir chuqur qazdirib "Jangda hushyor bo'lmog'imiz darkor. Najot mastlikda emas, hushyorlikdadir! May ichib ko'p gunohlar qildik. Endi men hayot-mamot jangiga halqumimni poklab kirmoqchimen",-deya qo'lidagi surohiydagi mayni chuqurga sepib yuboradi va qolganlarga ham shuni buyuradi, g'alabadan umidini uza boshlagan askarlarga ruh bag'ishlab son jihatdan o'zidan ancha ko'p bo'lgan dushman ustidan g'alaba qozonadi...

Bobur – eng buyuk ijodkor. O'sh vaqtlarda "tojdorlar tarixiy kitoblarda oddiy odamlarga o'xshab ko'rinishdan cho'chirdilar, ular el-yurtdan mumkin qadar balandda bo'lishni, oddiy insondan ko'ra Xudoga yaqinroq turishni xush ko'rardilar. Shuning uchun ham muarrixlar podshohlar haqida oddiy odamlar tushunmaydigan balandparvoz, sertakalluf tilda yozishga majbur bo'lardilar". Ammo Bobur ijodi buning tamoman aksi: asarlari ortiqcha takalluflarsiz, nafis bir soddalik bilan mohirona yozilgan edi. O'g'liga yozgan xatidagi jumlar ham buni tasdiqlaydi: "Betakalluf yoz, shunda senga ham tashvish oz bo'lur, o'qiguvchiga ham". Bu uslub o'z zamonasining mashhur muarrixi Xondamirni ham lol qoldirgan va u "Boburnoma"ga: "Avlodlarimiz bu shoh asarni Alisher Navoiyning "Xamsa"si kabi e'zozlagaylar. Shu paytgacha turkiy tilda bitilgan eng ulug' she'riy asar "Xamsa" bo'lsa, eng ulug' nasriy asar, meningcha, "Boburnoma" bo'lgusidir", deya e'tirof etgan edi. Shuningdek, Bobur Humoyun chalib bergan "Chorgoh savti" musiqasini bastalagan, o'zi kashf etgan "Xatti Boburiy" yozuvi ham o'rganish uchun ancha qulay bo'lgan.

Bobur – eng buyuk ota. Ota va farzand taxt talashgan, bir-biri bilan dushman darajasiga yetgan (Husayn Boyqaro va o'g'li Badiuzzamon), hatto o'g'illar taxt uchun o'z otasining qotiliga aylangan (Mirzo Ulug'bek va Abdullatif) "qonli" davrda Humoyun har bir ishda Boburdek bo'lishga intilar, uni jonidan ortiq yaxshi ko'rardi. Humoyunga atab "Mubayyin" asarini yozishi, o'g'lining dardini o'ziga berilishini Xudodan so'rab iltijo qilishi esa Boburning ham Humoyonni undan kam suymasligini isbotlardi.

Bobur – eng buyuk inson. Bobur aksariyat shohlardan farqli ravishda oddiy xalqni o'zi bilan teng ko'radi, ularga aziyat yetkazmaslikka urinadi. Uning bu fazilatini Tohirga bo'lgan muomalasida, uni o'ziga yaqin olib, qalbidagi gaplarini aytishi-yu o'limi oldidan ham Tohir bilan birga bo'lishni istashida hamda Qosimbekni charchagani uchun g'or ichiga kiritib, o'zi yigitlar bilan qor tepib yo'l ochishida ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, shuncha qilgan hurmatiga javoban uni zaharlagan, unga o'lim tilagan malika Baydaning yomonligiga yaxshilik bilan javob qaytarishi Boburning qanchalik pok qalb egasi ekanligidan dalolat beradi.

Bobur hayotda juda kop qiyinchiliklarga duch keldi, xiyonatlar ko'rdi, bir qo'lida qalam, bir qo'lida qilich bilan, qalbi to'la yurtiga bo'lgan sog'inch bilan yashadi. Uning shuncha qiyinchilik, azob-uqubatlarga mardonavor turganligi, yurtni adolat bilan, vijdon bilan boshqarganligi uchun mukofot tariqasida Xonzoda begimdek mehribon opa, Mohim begimdek oqila rafiqa, Humoyundek aql-zakovatli o'g'il hamda Tohirdek, Qosimbekdek sodiq safdoshlar berilgan bo'lsa, ajab emas. Umuman olganda, Bobur shohligi bilan ham, shoirligi bilan, chin insoniyligi bilan ham – har tomonlama nafaqat bugungi kun yoshlariga, balki butun insoniyatga o'rnak bo'la oladi. “Yulduzli tunlar” menga Boburni qayta tanitdi, uning tengsiz, bebaho inson ekanligini isbotlab berdi desam, hech ham yanglishmayman. Bobur – eng buyuk shoh, eng buyuk shoir, eng buyuk ota va eng buyuk inson...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. Toshkent. Yangi asr avlodi, 2015. 668 b.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent. O'ZBEKISTON NMIU, 2019. 440 b.